



PROFILAKTIKA

INSPEKTORINING

IJTIMOIY

**REABILITATSIYA QILISH VA IJTIMOIY MOSLASHTIRISH CHORATADBIRLARINI AMALGA OSHIRISH FAOLIYATINING MOHIYATI VA MAZMUNI XAMDA AHAMIYATI**

**O‘zbekiston Respublikasi IIV**

**Akademiyasi kursanti**

**Teshaboyev Omonjon Anvarjon o‘g’li**

**ANNOTATSIYA**

Maqolada profilaktika inspektorlarining ijtimoiy reabilitatsiya qilish va ijtimoiy moslashtirish faoliyati tushunchasi mazmuni, profilaktika inspektorlarining ijtimoiy reabilitatsiya qilish va ijtimoiy moslashtirish faoliyatining bugungi kundagi holati va profilaktika inspektorlarining ijtimoiy reabilitatsiya qilish va ijtimoiy moslashtirish faoliyatiini amalga oshirishning o‘ziga xos xususiyatlari. Bundan tashkari profilaktika inspektorlarining ijtimoiy reabilitatsiya qilish va ijtimoiy moslashtirish faoliyati doirasidagi normalarning amaliyot taxlili hamda ushbu faoliyat doirasida yuritiladigan protsessual hujjatlar, ushbu faoliyatdagi muammo kamchiliklar, shuningdek, ayrim turdag'i mavjud muammo kamchiliklarni bartaraf yetish buyicha bir kator takliflar berish. Profilaktika inspektorlarining ijtimoiy reabilitatsiya qilish va ijtimoiy moslashtirish faoliyati buyicha boshka xorijiy davlatlarning ilg‘or tajribasi xamda milliy konunchiligidan farkli va o‘xshash tomonlari, shuningdek, yukorida keltirib o‘tilgan jihatlaridan foydalangan xolda ushbu faoliyatni takomilashtirish yo‘nalishlari yoritib berilgan.

**ANNOTATION**



The article examines the content of the concept of social rehabilitation and social adaptation activities of prevention inspectors, the current state of social rehabilitation and social adaptation activities of prevention inspectors and the specifics of the implementation of social rehabilitation and social adaptation activities of prevention inspectors. In addition, prevention inspectors conduct a practical analysis of norms within the framework of social rehabilitation and social adaptation activities, as well as procedural documents carried out within the framework of this activity, make proposals to eliminate problematic deficiencies in this activity, as well as existing problematic deficiencies in certain types of activities. The best practices of other foreign countries in the field of social rehabilitation and social adaptation of prevention inspectors, their differences and similarities from our national king, as well as directions for improving this activity using the above-mentioned aspects are highlighted..

**Tayanch so‘zlar:** huquqbazarlik sodir etishga moyil bo‘lgan shaxs,g’ayriijtimoiy xulq-atvor, huquqbazarlik, huquqbazarliklar profilaktikasi, qonun, nizom, ichki ishlar organlari, ijtimoiy reabilitatsiya, moslashtirish,

O‘zbekistonda huquqiy demokratik davlat qurish vazifasi jamiyat xayotining barcha jabhalarida inson xukuk erkinliklarini ta’minlashning samarali mexanizimi yaratilishini takozo etadi. Respublikamiz konstitutsiyasida shaxs manfaatlarining davlat manfaatlaridan ustunligi, inson, uning hukuk va erkinliklari, manfaatlari oliy qadriyat xisoblanishi belgilab qo‘yilgan.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev O‘zbekiston Respublikasi prezidenti lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag‘ishlangan Oliy Majlis palatalarining qo‘shma majlisida “Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini mard va olivjanob xalqimiz bilan birga quramiz” deb nomlangan nutqida “...xalqimiz azaldan yuksak kadrlab keladigan, xama narsadan ustun quyadigan adolat tuyg‘usini xayotimizda yanada keng qaror toptirishni biz birinchi darajali



vazifamiz, deb xisoblaymiz. Bu borada buyuk soxibqiron bobomiz Amir Temur “Adolat xar bir ishda hamroximiz va dasturimiz bo‘lsin” degan chuqur ma’noli so‘zлari xar birimiz uchun xayotiy e’tiqodga aylanishi zarur. Bu masala eng avvalo, davlat xokimyati va boshkaruv organlari, butun sud tizimi, prokratura, ichki ishlar , nazorat organlari rahbarlari va xodimlarining, shuningdek, Oliy Majlisning Inson huquqlari bo‘yicha vakilining bevosita vazifasidir” deb takidlaganlar<sup>1</sup>.

Ushbu ma’ruzada bildirilgan muloxazalar biz ichki ishlar organlari xodimlarining oldiga yuksak ma’suliyat yuklaydi, ayniqsa adolatli va xalol xizmat olib borish yuzasidan muhimdir. Jamiyatda huquqiy ong va xukuiy madaniyatni yuksaltirish, fuqorolarda qonun buzilishiga murosasizlik munosabati hamda inson xukuk va erkinliklarini xurmat qilish hissini singdirish bo‘yicha ichki ishlar organlari huquqbazarliklar profilaktikasi bo‘linmalari tomonidan kuyidagi ishlar samarali tashkil etilmoqda:

- jamiyatda hukukiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish, fukarolarda qonun buzilishiga murosasizlik munosabatini shakllantirish, ularga qonunga itoatkorlik xulq-atvorini hamda inson huquq va erkinliklarini hurmat qilish hissini singdirish maksadida fukarolar o‘rtasida huquqiy targ‘ibot va ma’rifat bo‘yicha ishlarni tashkil etish;

- davlat organlari va tashkilotlari, Yoshlar ittifoki, «Nuroniy» jamg‘armasi va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlarini aholi o‘rtasidagi xukuiy targ‘ibot va ma’rifat ishlariga jalb qilish;

- aholi o‘rtasida hukukiy bilimni targ‘ib qilish va qonunchilik normalari mazmun-mohiyatini, shuningdek, mamlakatda amalga oshirilayotgan islohotlarning maqsad va vazifalarini tushuntirishda ishtirop etish;

- huquqbazarliklardan jabrlangan shaxslar, g‘ayriijtimoiy xulkiatvorli, huquqbazarliklarni sodir etishga moyil va sodir etgan shaxslarni ijtimoiy reabilitatsiya qilish hamda ijtimoiy moslashtirish choratadbirlarini amalga oshirish;

Xarakatlar strategiyasi asosida IIO tizimidagi islohotlar birinchi bosqich yakunlari va islohotlari. -T., 2018. 9.6.



- jismoniy shaxslar va yuridik shaxslar vakillarini qabul qilishni amalga oshirish va tashkil etish, ularning murojaatlarini konunchilikda belgilangan tartibda ko‘rib chiqish va hal etishni ta’minlash;
- aholi o‘rtasida huquqiy targ‘ibot va ma’rifat bo‘yicha axborot, tashkiliy va boshqa chora-tadbirlarni ishlab chiqish hamda amalga oshirilishini ta’minlash;
- aholi o‘rtasida xukukiy targ‘ibot va ma’rifat ishlarini amalga oshirishda ommaviy axborot vositalari, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan samarali foydalanishni tashkil qilish

O‘zbekiston Respublikasining 2014 yil 14 mayda qabul qilingan «Xukukbuzarliklar profilaktikasi to‘g‘risida»gi qonuning 33-moddasi ijtimoiy reabilitatsiya va ijtimoiy moslashtirish deb nomlanib unga ko‘ra Qonun hujjatlariga muvofiq davlat organlari va nodavlat-notijorat tashkilotlari huquqbuzarlikdan jabrlanganlarga va jazoni ijro yetishi muassasalaridan ozod yetilgan shaxslarga yordam ko‘rsatuvchi maxsus reabilitatsiya markazlar tuzishi mumkin. Reabilitatsiya markazlari huquqbuzarlikdan jabrlanganlarga va jazoni ijro yetish muassasalaridan ozod yetilgan shaxslarga xukukiy, ijtimoiy-psixologik va boshqa turdagи yordam ko‘rsatadi.

Huquqbuzarlikdan jabrlanganlarga jazoni ijro etish muassasalaridan ozod yetilgan shaxslarga yordam ko‘rsatuvchi maxsus reabilitatsiya markazlarni tuzish va ularning ishini tashkil etish tartibi konun hujjatlarida belgilanadi<sup>2</sup>

O‘zbekiston Respublikasining 2014 yil 14 mayda kabul kilingan «Huquqbuzarliklar profilaktikasi tugrisida»gi qonunning 45-moddasi. konunini ko‘rsatib o‘tishimiz kerak. Qonunning 3-bob 9-13 moddalarida odam savdosidan jabrlanganlarga yordam ko‘rsatuvchi va ularni ijtimoiy reabilitatsiya qilish ixtisoslashtirilgan muassasalar va ularning vazifalari, odam savdosidan jabrlanganlarni ijtimoiy reabilitatsiya qilish, odam savdosidan jabrlangan bolalarga

<sup>2</sup> Harakatlar strategiyasi asosida IIO tizimidagi isloxoatlar birinchi bosqich yakunlari va isloxoatlari. -T., 2018. 9-b.



yordam berish, odam savdosidan jabrlanganlarning xavfsizligini ta'minlash va kafolatlash, odam savdosidan jabrlanganlarning ta'minoti va ularni reabilitatsiya qilish bilan bog'liq xarajatlarning o'rnini qoplash masalalari bo'yicha normalar belgilangan. Ushbu qonunning 3-bobi aynan odam savdosidan jabrlanganlarni ximoya qilish va ularga yordam ko'rsatish deb nomlanib, ushbu bobning 9-moddasi odam savdosidan jabrlanganlarga yordam ko'rsatuvchi va ularni himoya qiluvchi ixtisoslashtirilgan ijtimoiy reabilitatsiya muassasalar deb belgilangan. Unga asosan odam savdosidan jabrlanganlarga yordam ko'rsatuvchi va ularni himoya qilish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan odam savdosidan jabrlanganlarga yordam ko'rsatuvchi ularni ximoya kiluvchi ixtisoslashtirilgan reabilitatsiya markazlar tashkil etildi.

Ushbu tadqiqotim davomida huquqbuzarliklarning bir ko'rinishi bo'lgan odam savdosi jinoyatidan jabrlanuvchilarga yordam ko'rsatuvchi va reabilitatsiya qilish bo'yicha ixtisoslashtirilgan ijtimoiy reabilitatsiya markazlar respublikamizda tashkil etilganligini guvoxi bo'ldim.

2008 yil 5 noyabrda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining "Odam savdosi jabrdiydalariga yordam berish va ularni ximoya qilish bo'yicha reabilitatsiya markazini tashkil etish to'g'risida" 240-sonli qarori qabul qilindi.

Ushbu qaror bilan Odam savdosiga qarshi kurash bo'yicha Respublika idoralararo komissiyasining O'zbekiston Respublikasi mexnat va sog'liqni saqlash vazirligi huzurida Odam savdosi jabrdiydalariga yordam berish va ularni ximoya qilish bo'yicha 30 o'ringa mo'ljallangan Respublika reabilitatsiya markazi tashkil etildi. Bu markaz bugungi kunda ham o'z faoliyatini samarali olib bormoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 14-martdag'i "Xuquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ 2833- sonli qaroriga muvofiq Odam savdosiga qarshi kurashish bo'yicha respublika idoralararo komissiyasi to'g'risidagi nizom qabul qilindi.



Ushbu Nizom fuqorolarning jabrlanuvchisi bo‘lib qolishining oldini olishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Ushbu Nizom 4-bob va 17 banddan iborat. Odam savdosiga qarshi kurashish bo‘yicha respublika idoralalararo komissiyasi (keyingi o‘rinlarda Komissiya) odam savdosiga qarshi kurashishni amalgalashiruvchi davlat organlarining faoliyatini muvofiqlashtiruvchi organ hisoblanadi. Komissiya tomonidan qabul qilinadigan qarorlar barcha vazirliklar, idoralar, jamoat birlashmalari boshqa nodavlat-notijorat tashkilotlari tomonidan ijro etilishi majburiydir. Komissiya o‘z faoliyatida O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlariga, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalari karorlariga, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti farmonlari, qarorlari farmoyishlariga, ushbu Nizom hamda boshqa qonun hujjatlariga amal qiladi. Komissiya o‘z faoliyatini davlat organlari, boshqa tashkilotlar hamda Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar, Toshkent shahrida, V.M.Q-240 "Odam savdosi jabrdiydalariga yordam berish va ularni ximoya qilish bo‘yicha reabilitatsiya markazini tashkil etish to‘grisida" tumanlar (shaharlar)da tuziladigan odam savdosiga qarshi kurashish bo‘yicha hududiy komissiyalar (keyingi o‘rinlarda hududiy komissiyalar) bilan o‘zaro hamkorlikda amalgalashiradi.

Bugungi kunda jinoyat va huquqbazarliklardan jabr ko‘rayotgan, fuqorolar ma’lum darajani tashkil etadi. Profilaktika inspektorlarining huquqbazarliklar profilaktikasida ijtimoiy reabilitatsiya ijtimoiy moslashtirish faoliyatini jinoyat huquqbazarliklardan fuqorolarning jabrlanishini oldini olish, ularning jabrlanuvchi bo‘lib qolishining sabab va shart-sharoitlari, bunga olib kelayotgan omillar, ushbu faoliyatni amalgalashiruvchi organ va muassasalarning xato va kamchiliklarini o‘rganib chikish va ularni bartaraf yetish chora-tadbirlarini ishlab chiqish amalda joriy etishga ko‘maklashish kabi vazifa hamda o‘ziga xos xususiyatlarni o‘z ichiga oladi.



Profilaktika inspektorlarining xukubuzarliklar profilaktikasida huquqbazarliklardan jabrlanuvchilarga yerdam ko‘rsatuvchi ijtimoiy reabilitatsiya qilishga ixtisoslashtirilgan muassasalar bilan bирgalikdagi faoliyat kuydagи belgilar bilan o‘ziga xos xususiyatlarga ega:

- profilaktika inspektorlarining xuquqbazarliklar profilaktikasida huquqbazarliklardan jabrlanuvchilarga yordam ko‘rsatuvchi ijtimoiy reabilitatsiya qilishga ixtisoslashtirilgan muassasalar bilan bирgalikdagi faoliyatning subyekt, obyekt va predmeti mavjudligi;

- profilaktika inspektorlarining huquqbazarliklar profilaktikasida huquqbazarliklardan jabrlanuvchilarga yordam ko‘rsatuvchi ijtimoiy reabilitatsiya qilishga ixtisoslashtirilgan muassasalar faoliyatida umumiy maqsad, vazifa va yunalishlar mavjudligi;

- profilaktika inspektorlarining huquqbazarliklar profilaktikasida huquqbazarliklardan jabrlanuvchilarga yordam ko‘rsatish va boshqa shu kabilarni aytib o‘tishimiz mumkin.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 14- martdagи PQ-2833-sonli qarori ko‘rsatuvchi ijtimoiy reabilitatsiya qilishga ixtisoslashtirilgan muassasalar faoliyatida o‘zaro bir-birini tushunish, o‘zaro yordam ko‘rsatish va o‘zaro qo‘llab-quvvatlashga asoslanganligi;

- Profilaktika inspektorlarining huquqbazarliklar profilaktikasida huquqbazarliklardan jabrlanuvchilarga yordam ko‘rsatuvchi ijtimoiy reabilitatsiya qilishga ixtisoslashtirilgan muassasalar bilan hamkorlikda ijobiy natijalarga erishish uchun intilish;

- Profilaktika inspektorlarining huquqbazarliklar profilaktikasida xukubuzarliklardan jabrlanuvchilarga yordam ko‘rsatuvchi ijtimoiy reabilitatsiya qilishga ixtisoslashtirilgan muassasalar faoliyatida mukammal (optimal), xar ikki tomon uchun makbul bo‘lgan shakl va usullarini qo‘llanilishi;



- Profilaktika inspektorlarining huquqbuzarliklar profilaktikasida huquqbuzarliklardan jabrlanuvchilarga yordam ko'rsatuvchi ijtimoiy reabilitatsiya qilishga ixtisoslashtirilgan muassasalar faoliyatida xar ikkala tomonning xam axborot ta'minoti, ma'lumot almashish va tahlilga egaligi;

- Profilaktika inspektorlarining huquqbuzarliklar profilaktikasida huquqbuzarliklardan jabrlanuvchilarga yordam ko'rsatuvchi ijtimoiy reabilitatsiya qilishga ixtisoslashtirilgan muassasalar faoliyatida ishtirokchilarining xamkorlikni tashkil etish uchun ma'sulligi va bиргалидаги faoliyatning baxolab borilishi.

Profilaktika inspektorlarining huquqbuzarliklar profilaktikasida huquqbuzarliklardan jabrlanuvchilarga yordam ko'rsatuvchi ijtimoiy reabilitatsiya qilishga ixtisoslashtirilgan muassasalar faoliyatida kuydagi tamoyillarga asosan tashkil etiladi:

- Konstitutsiya va qonun ustuvorligi;
- Oldindan kelishilgan va ishlab chiqilgan reja asosida olib borilishi;
- Belgilangan vakolat doirasidan chetga chiqmaslik;
- Xar qanday masalalarning uyushqoqlik va tezkorlik bilan hal etilishi,
- Bir maqsad yulida o'z ish faoliyatini olib borish va xamkorlikda amalga oshirish.

Profilaktika inspektorlarining huquqbuzarliklar profilaktikasida huquqbuzarliklardan jabrlanuvchilarga yordam ko'rsatuvchi ijtimoiy reabilitatsiya qilishga ixtisoslashtirilgan muassasalar faoliyatini urganishimizda biz albatta O'zbekiston Respublikasining 2014 yil 14 mayda « Huquqbuzarliklar profilaktikasi tugrisida»gi qonuniga yuzlanamiz. Ushbu qonunning 5 va 6-boblaridagi xukukbuzarliklarning yakka va viktimologik profilaktikasi chora-tadbirlari o'z ifodasini topgan bo'lib bu chora-tadbirlar shaxsning jinoyat yoki huquqbuzarlikning ishtirokchisi va jabrlanuvchisi bo'lib kolishini oldini olishda muhim ahamiyat kasb etadi va bu chora-tadbirlarga kuydagilar kiradi:



- huquqbuzarliklardan jabrlanuvchilarga va jazoni ijro yetish muassaslaridan ozod yetilgan shaxslarga nisbatan shaxsning individual va jtimoiy-psixologik xususiyatlari xisobga olingan holda profilaktik tadbirlarni o'tkazish;  
aholiga, shu jumladan huquqbuzarliklardan jabrlanuvchilar va jazoni ijro yetish muassaslaridan ozod yetilgan shaxslarga shaxslar o'rtasidagi nizolarni hal etish usullarini o'rgatish.<sup>3</sup>
- huquqbuzarliklardan jabrlanuvchilarni va jazoni ijro yetish muassaslaridan ozod yetilgan shaxslar ximoya qilish va moslashtirish bo'yicha chora-tadbirlarni ko'rish;
- huquqbuzarliklardan jabrlanuvchilarga va jazoni ijro yetish muassaslaridan ozod yetilgan shaxslarga yordam ko'rsatuvchi reabilitatsiya muassasalarni tashkil etish;
- huquqbuzarliklardan jabrlanuvchi va jazoni ijro yetish muassasalaridan ozod yetilgan shaxslarning jismoniy va psixologik xavfsizligini ta'minlashga qaratilgan maxsus kompleks choratadbirlarni ishlab chiqish va amalga oshirish, uni qonunda nazarda tutilgan o'zini-o'zi mudofaa qilish usullari va vositalari to'g'risida xabardor qilish;
- g'ayriijtimoiy hulq-atvorli shaxslarda tez-tez kuzatiladigan yoki xukukbuzarliklar tez-tez sodir bo'lib turadigan joylarni muntazam ravishda nazorat qilish;
- xujum qilingan takdirda zaruriy mudofaa va oxirgi zarurat xaqidagi ma'lumotlarni keng tarqatish yuli bilan aholiga huquqiy tarbiya va ta'lim berish;
- g'ayriijtimoiy hulq-atvor, tayyorlanayotgan, sodir etilayotgan yoki sodir etilgan huquqbuzarliklar to'g'risida axborot olish maqsadida huquqbuzarliklar profilaktikasini bevosita amalga oshiruvchi organ yoki muassasa huzurida ishonch, tezkor aloqa telefonlarini, qutqaruv xizmatlarini tashkil etish.

<sup>3</sup> Xarakatlar strategiyasi asosida IIO tizimidagi isloxitlar birinchi bosqich kunlari va isloxitlari. -T., 2018. 24-b



- profilaktika dasturlari va tadbirlari loyihalarining ommaviy muxokamalarini tashkil etish, ularni amalga oshirish jarayonida muammo va kamchiliklarni aniqlash hamda bartaraf etish maqsadida jaxon internet axborot tarmog‘ida veb-saytlar, bloglar, chatlar tashkil qilish;
- huquqbuzarliklar profilaktikasining zamonaviy usullari to‘grisida elektron adabiyotlarni tarqatish.

Profilaktika inspektorlarining huquqbuzarliklar profilaktikasida huquqbuzarliklardan jabrlanuvchilarga yordam ko‘rsatuvchi ijtimoiy reabilitatsiya ixtisoslashtirilgan muassasalarining o‘ziga xos xususiyatlardan birini qo‘ydagi nuktay nazardan ham ko‘rib chiqish mumkin.

- jinoyatchi va jabrlanuvchi munosabatlarining umumiyligi tavsifi, ularning o‘zaro aloqasi;
- jinoyat sodir etishning umumiyligi sabablari va shartlari, umumiyligi tarkibida jabrlanuvchi va huquqbuzarning shaxsi va xulq-atvori;
- jabrlanuvchi va huquqbuzar shaxsi va xulq-atvorining latent jinoyatichilik bilan o‘zaro aloqasi.

Xuquqbuzarliklardan jabrlanuvchilar va jazoni ijro yetish muassaslaridan ozod yetilgan shaxslarga yordam ko‘rsatuvchi reabilitatsiya ixtisoslashtirilgan muassasalar huquqbuzarliklardan jabrlanuvchilar va jazoni ijro yetish muassaslaridan ozod etilgan shaxslarga huquqiy, ijtimoiy, psixologik, tibbiy, pedagogik va boshka turdagisi yordam ko‘rsatadilar. Bunday yordam ko‘rsatilishi albatta huquqbuzarliklardan jabrlanuvchilar va jazoni ijro yetish muassaslaridan ozod yetilgan shaxslarni jamiyatga kirishib ketishiga, buzilgan psixologik xolatini tiklashga, jamiyatda ishonch va buzilgan haq-huquqlarini tiklashga juda katta yordam beradi.<sup>4</sup>

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

### 1.O‘zbekiston Respublikasining Konsitutsiyasi-2023

<sup>4</sup> Xarakatlar strategiyasi asosida IIO tizimidagi isloxoqlar birinchi bosqich yakunlari va isloxoqlari. -T., 2018, 22-b



2. O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi 22.09.1994
3. O‘zbekiston Respublikasining Ma’muriy javobgarlik to‘g’risidagi kodeksi 22.09.1994
4. O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat – ijroiya kodeksi 25.04.1997
5. O‘zbekiston Respublikasining “Ichki ishlar organlari to‘g’risida”gi Qonuni 16.09.2016 O‘RQ-406
6. O‘zbekiston Respublikasining “Huquqbazarliklar profilaktikasi to‘g’risida”gi Qonuni 14.05.2014 O‘RQ-371
7. O‘zbekiston Respublikasining “Jazoni ijro etish muassasalaridan ozod qilingan ayrim toifadagi shaxlar ustidan ma’muriy nazorat to‘g’risida” gi Qonun 2.04.2019 O‘RQ-532
8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori “ Ichki ishlar organlari huquqbazarliklar profilaktikasi bo‘linmalari faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g’risida” gi PQ-2896 18.04.2017
9. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori “Ichkis ishlar organlarining jamoat xavfsizligini ta’minlash va jinoyatchilikka qarshi kurashish sohasidagi faoliyatini yanada takomillashtirish bo‘yicha qo‘sishimcha tashkiliy chora-tadbirlar to‘g’risida” PQ-5050 2.04.2021
10. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Qarori “Mahalla huqu-tartibot maskanlari faoliyatini yanada takomillashtirish to‘g’risida” VM-343 23.06.2022